

POLIZ EKINLARINING ASOSIY ZARARKUNANDASI QOVUN PASHSHASIGA QARSHI KURASH CHORALARI

Nasimov Axror A`zamxon o`g`li, ilmiy tadqiqotchi

Orcid ID: 0009-0007-2521-5082

Elmurodova Mohichehra Jamil qizi, magistrant

Orcid ID: 0009-0001-8210-9127

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna, q.x.f.f.d., dotsent

Orcid ID: 0000-0003-0425-7375

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Maqolada gektariga 0,3 l sarf miqdorida Entovant 15% em.k. preparati qo‘llanilganda nazoratga nisbatan olingan biologik samaradorlik 89,0% ni tashkil qildi. Nureel-D preparatini gektariga 0,16 l sarf miqdorda sinovdan o‘tkazgan-imizda natija 80-90% ni tashkil etdi. Ushbu preparatlarni o‘rim-yig‘imdan kamida 25-30 kun oldin qo‘llash tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: qovun, zararkunanda turlari, entomofaglar, kurash choralari, biologik samaradorlik.

Аннотация. В статье достигнута химическая эффективность Энтоваанта 15% э.к., 0,3 л на гектар, Nureel - D (циперметрин 5% + Хлорпирифос 50%) э.к. 0,16 л, биологическая эффективность 89,0-90,0%. Рекомендуется использовать эти препараты как минимум за 25-30 дней до сбора урожая.

Ключевые слова: дыня, виды вредителей, энтомофаги, меры борьбы, биологическая эффективность.

Abstract. The article achieved the chemical efficiency of Entovant. 15% em.k., 0.3 l per hectare, Nureel -D (sipermetrin 5% + Xlorpirifos 50%) 0,16 l, biological efficiency 89,0-90,0%. It is recommended to use these preparations at least 25-30 days before han'est.

Keywords: pest species, entomophages, control measures, biological effectiveness.

Kirish. Poliz ekinlari hamma joyda yer yuzining tropik, subtropik va mo'tadil zonalarida o'stiriladi. Dunyo bo'yicha poliz ekinlarining umumiy maydoni 165 mln. gektarni tashkil qiladi. Faqat qovun bilan band bo'lgan maydonlar dunyo bo'yicha 400-500 ming gektar deb taxminiy baholangan [1].

O'rta Osiyo mamlakatlari va Qozog'istonning janubida poliz qishloq xo'jalik ekinlari orasida asosiy o'rinni egallaydi. O'zining yuqori ozuqa birligi va ta'mi bilan ajralib turadigan poliz mevalari, ayniqsa, qovun, azaldan aholining muhim va sevimli oziq-ovqat mahsuloti bo'lib hisoblanadi.

Qovun mevasi odatda poliz ekinlari ichidagi eng ko'p miqdorda qand moddasini saqlaydi, ayrim qattiq yozgi qovunlarda 18% gacha qand moddasi bo'lib, asosan saxaroza holda uchraydi (glyukoza va fruktoza miqdori esa teng bo'ladi) [2].

Shunga ko'ra qovun zararkunandalarining miqdorini boshqarish usullari bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, ushbu ekindan olinadigan hosildorlikni saqlab qolish imkoniyatini yaratiladi. Qovunning asosiy zararkunandalariga qarshi kurashishda ekologik havfsiz, atrof-muhitga bezarar usullarini zamonaviy texnologiyalarga mos ravishda ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda hozirgi kunda qovun o'rgimchakkana, kuzgi tunlam, qovun pashshasi, shira va tripslar bilan jiddiy zararlanmoqda. Buning oqibatida yetishtirilgan hosilning 50-60% qismi nobud bo'lmoqda [3].

Yuqorida keltirilgan muammolarga asoslangan holda qovunni qovun pashshasidan himoya qilish maqsadida tadqiqotlar olib bordik.

1-jadval.

Qovun pashshasiga qarshi kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi
(ToshDAU "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahatlar markazi" DUK tajriba maydonlari, 2024 y).

№	Variantlar	Prep., sarf miqdori kg, l/ga	O'rtacha 100 tup o'simlikdagi zararkunandalar soni, dona					Biologik samaradorlik, %			
			Dori sepil- guncha	Dori sepilgandan keyin, kun.							
				3	7	14	21	3	7	14	21
1	Entovant, 15% em.k.	0,3	22,7	8,7	4,5	3,1	7,4	64,0	76,0	89,0	77,0
2.	Nureel -d (sipermetrin 5%+ xlorpirifos 50%), 1,8 % em.k	0,16	19,5	6,8	5,9	2,4	5,5	67,3	71,6	90,0	80,0
3.	Nazorat (ishlov berilmagan)	-	22,3	23,8	24,6	27,5	31,4	-	-	-	-

“O‘SIMLIKLARNI HIMOYASI VA KARANTINIDA ILG‘OR TAJRIBALAR ASOSIDA UYG‘UNLASHGAN HIMOYA TIZIMINI QO‘LLASH” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO‘PLAMI

 agrokimyo.uzsci.uz  karantinjurnali

Materiallar va uslublar. Tadqiqotlar 2024 yilda Toshkent viloyati sharoitida, qovun pashshasiga qarshi kimyoviy preparatlarni sinovdan o‘tkazdik. Tajribamizda kimyoviy preparatlardan Entovant (Indoksakarb 15%), gektariga 0,3 l, Nureel - D (sipermetrin 5% + Xlorpirifos 50%), 0,16 l sarf-me‘yorlarida qo‘llanildi. Tajribamizning har bir varianti 3 qaytarishda o‘tkazildi. Nazorat variantida esa insektoakaritsidlar bilan ishlov berilmadi [4].

Natijalar va munozara. Qovun pashshasiga qarshi gektariga 0,3 l sarf miqdorida Entovant 15% em.k. preparati qo‘llanilganda nazoratga nisbatan olingan biologik samaradorlik 89,0% ni tashkil

kildi. Nureel -D preparatini gektariga 0,16 l sarf miqdorda qovun pashshasiga qarshi sinovdan o‘tkazganimizda natija 3-hisob kunida 67,3% ni, 7-kunda 71,6 % ni va eng yuqori samara 12-14-hisob kunida 80-90% ni tashkil etdi, qolgan kunlarda esa samaradorlik biroz pasayganligi kuzatildi (1-jadval).

Xulosa shuki, qovun pashshasiga qarshi kimyoviy preparatlardan “Entovant” 15 % em.k. gektariga 0,3 l, Nureel -D (sipermetrin 5%+ Xlorpirifos 50%), 0,16 l sarf me‘yorlarida qo‘llanilganda 80-90% biologik samaradorlikka erishiladi va bu preparatlarni hosil yig‘ishtirib olishdan kamida 25-30 kun oldin qo‘llash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Торениязов Е.Ш., Ходжаев Ш.Т. - К вопросу о совершенствовании защиты бахчевых культур от подгрызающих совок. //Перспективы химической защиты с/х культур и продукции при хранении. - Тр.САНИИЗР. - Ташкент.1989-С.38-40.
2. Торениязов Е.Ш. Основы интегрированной защиты овоще-бахчевых культур от вредных насекомых и др.членистоногих в новых условиях хозяйствования в республике Каракалпакистан: Автореф. дис. доктора с.х. наук. Ташкент, 1999. 32 с.
3. Xo‘jaev Sh.T., Mamatov K., Alimuxamedov S., Xoldorov M. Sabzavot ko‘chatlarini himoya qilishning yangi texnologiyasi. // J. O‘z.qishloq xo‘jaligi №12 2014y. 26 b.
4. Xo‘jaev Sh.T.- Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. Toshkent. 2004 y.